

TIL TARAQQIYOTIDA GLOBALLASHUV OMILINING O'RNI
THE ROLE OF GLOBALIZATION IN LANGUAGE DEVELOPMENT
РОЛЬ ГЛОБАЛИЗАЦИИ В РАЗВИТИИ ЯЗЫКА

HASANJONOVA MOHINUR ASILJON QIZI

Qo'qon universiteti Andijon filiali

IT va ijtimoiy-gumanitar fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish yo'nalishi 25-13 guruh talabasi

E-mail: hasanjonovamohinur@gmail.com

Tel: +998 94 876-71-77

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv jarayonining til taraqqiyotiga ta'siri nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Globallashuv natijasida yuzaga kelayotgan til kontaktlari, chet tillardan kirib kelayotgan leksik birliklar va ularning milliy til tizimiga ta'siri masalalari yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy kommunikatsiya vositalari, ommaviy axborot va texnologik taraqqiyotning til rivojiga ko'rsatadigan ta'siri ilmiy qarashlar asosida o'rganiladi. Maqolada tilning boyishi bilan bir qatorda, uning milliy xususiyatlarini saqlab qolish masalasi ham muhim muammo sifatida ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: globallashuv, til taraqqiyoti, til kontaktlari, leksik o'zgarishlar, milliy til, madaniy muhit.

Abstract: This article provides a theoretical analysis of the impact of globalization on language development. It examines language contacts arising as a result of globalization, the influx of lexical units from foreign languages, and their influence on the national language system. In addition, the effects of modern communication tools, mass media, and technological progress on language development are studied on the basis of scholarly approaches. Along with language enrichment, the article also emphasizes the importance of preserving the national characteristics of a language as a significant issue.

Keywords: globalization, language development, language contacts, lexical changes, national language, cultural environment.

Аннотация: В данной статье теоретически анализируется влияние процесса глобализации на развитие языка. Освещаются языковые контакты, возникающие в результате глобализации, заимствование лексических единиц из иностранных языков и их воздействие на национальную языковую систему. Также на основе научных подходов рассматривается влияние современных средств коммуникации, средств массовой информации и технологического прогресса на развитие языка. Наряду с обогащением языка в статье подчеркивается важность сохранения его национальных особенностей как актуальной научной проблемы.

Ключевые слова: глобализация, развитие языка, языковые контакты, лексические изменения, национальный язык, культурная среда.

Bugungi globallashuv sharoitida butun dunyo miqyosida kundan kunga sodir bo'layotgan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va axborot jarayonlari jamiyat hayotining barcha sohalariga, xususan, til taraqqiyotiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Xalqlar va madaniyatlar o'rtasidagi aloqalarning kuchayishi, xalqaro munosabatlarning kengayishi hamda zamonaviy kommunikatsiya vositalarining rivoji tillar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni jadallashtirmoqda. Buning natijasida til tizimida yangi leksik birliklar, terminlar va nutq shakllari paydo bo'lib, tilning rivojlanish sur'ati yanada tezlashmoqda.

Birinchi o'rinda "Globallashuv o'zi nima?", "Globallashuv so'zi qayerdan kelib chiqqan" degan savollarga to'xtalsak. Globallashuv — bu zamonaviy davrda axborot texnologiyalari, ommaviy kommunikatsiya vositalari hamda xalqaro hamkorlik natijasida jamiyatlar o'rtasidagi chegaralarning nisbatan qisqarishi va ularning o'zaro ta'sirining kuchayish jarayonidir. Ilk bor "globallashuv" atamasi 1960-yillarda paydo bo'lgan bo'lib, u ingliz tilidagi "global" so'zidan kelib chiqqan.

Shuningdek hozirgi rivojlanib borayotkan zamonda yashar ekanmiz, globallashuv tilimiz, jamiyatimiz va madaniyatimizga bevosita ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Til ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat va insonlar o'rtasida uzviy bog'liq bo'lib, jamiyatda yuz berayotgan har qanday o'zgarish til taraqqiyotida o'z aksini topadi. Hozirgi globallashuv jarayoni aynan shu nuqtai nazardan tilshunoslikda dolzarb masalalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Ayniqsa, chet tillar bilan til kontaktlarining kuchayishi, ommaviy axborot vositalari, internet va raqamli texnologiyalar orqali yangi so'z va iboralarning tezkor tarqalishi tilning leksik va semantik qatlamiga sezilarli ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Globallashuvning til taraqqiyotiga ta'siri ikki tomonlama xarakterga ega. Bir tomondan, bu jarayon tilning boyishiga, ilm-fan va texnika sohalariga oid terminologiyaning rivojlanishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, milliy tilning o'ziga xos xususiyatlarini saqlab qolish masalasini dolzarb muammo sifatida kun tartibiga olib chiqadi. Chet tillardan ortiqcha va me'yorlashtirilmagan o'zlashmalar milliy tilning sofligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ham tilshunoslar tomonidan alohida ta'kidlanmoqda. Shu sababli globallashuv sharoitida til taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini nazariy jihatdan o'rganish, tilning boyishi va milliylikni saqlash o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash masalalarini ilmiy asosda tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Globallashuv jarayoni til taraqqiyotiga murakkab va ko'p qirrali ta'sir ko'rsatib, uning rivojida ijobiy hamda salbiy jihatlarni yuzaga keltirmoqda. Bir tomondan, globallashuv tilning leksik boyishini jadallashtiradi. Axborot texnologiyalari, fan, ta'lim va biznes sohalarida yuzaga kelayotgan yangi tushunchalar natijasida "onlayn", "platforma", "kontent", "startap", "vebinar", "kredit tizimi" kabi leksik birliklar tilimizda mustahkam o'rin egallamoqda. Ushbu so'zlar yangi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni nomlashga xizmat qilib, tilning zamonaviy ehtiyojlarga moslashuvchanligini ta'minlaydi. Shuningdek, xalqaro muloqotning kengayishi terminologik birliklarning umumlashuviga olib kelib, ilmiy va professional nutqning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Biroq globallashuv jarayonining salbiy jihatlari ham mavjud. Xususan, chet tillardan kirib kelayotgan ayrim leksik birliklarning me'yorlashtirilmasdan qo'llanishi milliy tilning sofligiga putur yetkazishi mumkin. "Chek qilmoq", "update qilmoq", "skrin qilmoq" kabi gibrid birikmalarning keng tarqalishi o'zbek tilida mavjud bo'lgan muqobil birliklarning chetga surilishiga sabab bo'lmoqda. Natijada milliy tilga xos ifoda vositalari asta-sekin passivlashib, nutq madaniyati darajasining pasayishiga olib kelish ehtimoli yuzaga chiqadi. Shu sababli globallashuv sharoitida til taraqqiyotini ilmiy asosda boshqarish, o'zlashmalarni me'yoriy shaklda qo'llash va milliy tilning ichki imkoniyatlarini faollashtirish muhim vazifa sifatida namoyon bo'ladi.

Tilshunoslik nazariyasi bo'yicha globallashuv til kontaktlari orqali til strukturasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi — chet tillardan kirib keladigan leksik birliklar, iboralar va ifodalar jamiyatda yangi ijtimoiy-madaniy holatlar bilan bog'lanadi, bu jarayon til evolyutsiyasini jadallashtiradi. Bu holat tilning leksik boyishiga xizmat qilib, yangi ijtimoiy ehtiyojlarni ifodalash imkonini beradi va buning natijasida kommunikativ samaradorlik oshadi. Masalan, "onlayn", "platforma", "startup" kabi chet til elementlari tilimizda zamonaviy hayot hodisalarini nomlashda keng qo'llanilmoqda. Madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan til nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki madaniy identitet va qadriyatlarning vositachisi hisoblanadi. Globallashuvning madaniy almashinuv mexanizmi til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini kuchaytiradi, biroq shu bilan birga bu jarayon mahalliy madaniyat va tilning o'ziga xosligini yo'qotish xavfini ham keltirib chiqaradi.

Maqolada ko'rsatib o'tilishicha, tilshunoslik va madaniyatshunoslik nazariyalari globallashuv jarayonining til taraqqiyotiga ijobiy va salbiy ta'sirini tahlil qilishda muhim ilmiy asos beradi. Tilning boyishi va milliy xususiyatlarni saqlash o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash til taraqqiyotining samarali yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi kerak. Shu sababli, globallashuv sharoitida tilni rivojlantirish jarayonida lingvokulturologik yondashuvni qo'llash va chet til o'zlashmalarini me'yoriy asosda qabul qilish, milliy til identitetini himoya qilishga xizmat qiladi.

Natijada, globallashuv tilimizga yangi imkoniyatlar olib kelishi bilan birga, tilning milliy ifoda vositalarini saqlash va madaniy identitetni mustahkamlash vazifalarini ham ilgari suradi, bu esa zamonaviy tilshunoslik tadqiqotlari uchun dolzarb ilmiy masala sifatida qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. **Turdimurotova G. N.** (2024) O'zbek tilshunosligi va uning rivojlanayotgan yo'nalishlari.
2. **Ismatullayeva N. M.** Globallashuv tushunchasining paydo bo'lish tarixi.
3. **Mulaydinov F., Po'latova R.** (2025) Tilning kelajagi: avtomatik tarjima tizimlari va tilshunoslikni o'zgartirishi.
4. **Aziza T.** O'zbek tilshunosligi taraqqiyoti va lingvokulturologik tadqiqot muammolari.